



**Farg'ona  
viloyatining  
chakana savdo  
tovar aylanmasi  
(2018 yil  
yanvar-oktabr)**

**Hududlar  
kesimida  
chakana savdo  
tovar aylanmasi  
hajmi  
(mlrd. so'm)**

Fargona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9160,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1003,2 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 39,7 foiz), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 7288,8 mlrd. so`mni o'sish sur`ati 1,6 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 868,6 mlrd. so`mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 foizga ortgan) tashkil etdi.



2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari Fargona , Qo'qon, Marg'ilon shaharlari hamda Fargona t ,Quva t, Qoshtepa t ,Oltiariq t,Yozyovon tumanida qayd etildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (% da)**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,6 foizga o'sdi va 1003,2 mld. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,0 foiz ulushiga to`g`ri keladi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)  
(2018 yilning yanvar–oktabr holatiga)**

*Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (%da)*

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 7288,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 1,6 foizga o'sishga erishdi. viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,6 foizga teng kelmoqda.



2018 yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2514,6 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

|                          | Ming so`m     | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---------------|--|
| <b>Farg'ona viloyati</b> | <b>2514,6</b> | <b>103,1</b>                             |
| <i>shaharlar</i>         |               |  |
| Farg'ona                 | 7966,3        | 105,1                                    |
| Qo'qon                   | 4263,4        | 108,4                                    |
| Quvasoy                  | 2765,0        | 99,6                                     |
| Marg'ilon                | 3078,9        | 103,1                                    |
| <i>tumanlar</i>          |               |  |
| Oltiariq                 | 2009,2        | 101,6                                    |
| Qo'shtepa                | 2581,3        | 99,5                                     |
| Bag'dod                  | 1609,8        | 101,9                                    |
| Buvayda                  | 1793,3        | 102,0                                    |
| Beshariq                 | 1517,5        | 100,6                                    |
| Quva                     | 1942,3        | 102,8                                    |
| Uchko'prik               | 1208,7        | 102,9                                    |
| Rishton                  | 1564,4        | 98,9                                     |
| So'x                     | 2047,4        | 99,9                                     |
| Toshloq                  | 1342,0        | 100,9                                    |
| O'zbekiston              | 1068,3        | 102,4                                    |
| Farg'ona t               | 2379,8        | 103,6                                    |
| Dang'ara                 | 1375,4        | 101,2                                    |
| Furqat                   | 1152,8        | 103,6                                    |
| Yozyovon                 | 3767,6        | 99,4                                     |

**Fargona  
viloyatining ulgurji  
savdo Tovar  
aylanmasi  
(2018 yil yanvar-  
Oktabr)**

**hududlar kesimida  
ulgurji savdo tovar  
aylanmasining  
o`tgan yilga  
nisbatan o`zgarish  
sur`atlari (%da)**


Jadvaldan ko`rinib turibdiki, viloyatning deyarli barcha hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan. Boshqa hududlarga nisbatan ushbu ko`rsatkich Farg'ona shahri (7966,3 ming so`m), Qo'qon shahri (4263,4 ming so`m) va Yozyovon tumanida (3767,6 ming so`m) sezilarli darajada yuqori bo`lgan.

2018 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,6 foizni tashkil etib, 171,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan 0,5 foizga o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,3 foiz ulushi kichik tadbirdorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2500,2 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 3,0 foizga oshgan.

Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`sish sur`atida kamayishi kuzatildi: Farg'ona tumani-68,2 %, Bag'dod tumani – 54,4 %, Yozyovon tumani-53,1 Fargona shahar -27,6 %, Beshariq tumani-26,1%. Qoshtepa tumani-25,9

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,1 foizga oshdi va 1791,0 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 71,6 foizni tashkil qildi.



**Nashr uchun**

**mas'ul:**

**M.Turg'unova**

**Tel: 71 230-87-18**